Mahalliy budjetning qo'shimcha daromadlarini shakillantirish yo'nalishlari.....	856
Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li	
Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari	860
Ro'zimatova Nigora Abdullaevna	
Принципы «справедливой стоимости» в мсфо: достоинства и проблемы применения в банках узбекистана	869
Айтмуродова Рушана Бахтиеровна	
Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari	876
Allaberganova Asalxon Kadirovna	
Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish	880
Xasanov Ruslan Raxmatovich	
Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish	883
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
"Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	



UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI MINTAQADA INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARUVI

Adilova Yulduz Shavkatovna

TATU Qarshi filiali katta o'qituvchisi
yulduzadilova1987@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada uy-joy kommunal sohasi faoliyatini boshqarish mexanizmlari nazariy ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Uy-joy kommunal xizmatlari sohasida bozor munosabatlarini shakllantirish vazifalarini amalga oshirish modeli, sohani boshqarish mexanizmi, uy-joy kommunal xizmatlari sohasida kraudfanding jarayonining joriy etilishi, Kvin-Rorbaxning "Raqobat qadriyatlar va tashkiliy samaradorlik" modeli qo'llanilishi hamda ushbu sohada davlat-xususiy sherikchilik mexanizmining ishlab chiqilishi va amaliyotda foydalanish yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: uy-joy kommunal xo'jaligi, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, innovatsiyalar, uy-joy kommunal xizmatlari sifati, kraudsorsing, ekspertlar baholashi, innovatsiyalarni boshqarish, moliyalashtirish.

Abstract: The article explores the management mechanisms of the housing and communal services sector based on theoretical sources. It substantiates a model for implementing market relations in the housing and utilities sphere, governance mechanisms in the sector, the introduction of crowdfunding, the application of the Quinn-Rohrbach model of "Competitive Values and Organizational Effectiveness", and the development and practical use of public-private partnership mechanisms in this field.

Key words: housing and communal services, utility service delivery, innovations, service quality, crowdsourcing, expert evaluation, innovation management, financing.

Аннотация: В статье на основе теоретических данных исследованы механизмы управления деятельностью жилищно-коммунального хозяйства. Обоснована модель реализации задач формирования рыночных отношений в сфере жилищно-коммунальных услуг, механизм управления отраслью, внедрение краудфандинга в данной сфере, применение модели Квина-Рорбаха «Ценности конкуренции и организационная эффективность», а также разработка и практическое применение механизма государственно-частного партнёрства в сфере ЖКХ.

Ключевые слова: жилищно-коммунальное хозяйство, предоставление коммунальных услуг, инновации, качество коммунальных услуг, краудсорсинг, экспертная оценка, управление инновациями, финансирование.

KIRISH

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, uy-joy kommunal xizmatlar sohasi va sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar samaradorligini ta'minlash, shuningdek, asosiy iste'molchilar hisoblangan aholining xizmatlar hajmi va sifatidan qoniqishini oshirish uchun, birinchi navbatda, sohada tabiiy monopoliya darajasini qisqartirish va bozor munosabatlarini chuqurlashtirish lozim. "Uy-joy kommunal xo'jaligi" tushunchasi atama sifatida yagona va aniq qonuniy tasdig'iga ega emas. Shu sababli, turli manbalar, me'yoriy hujjatlar va tadqiqotlarda mazkur tushunchaga turlicha yondashuvlar mavjud.

O'zbekiston aholisiga ko'rsatilayotgan xizmatlar orasida uy-joy kommunal xizmatlari eng katta o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham asosiy vazifalardan biri ushbu turdagi xizmatlar sifatini oshirishdan iborat. Uy-joy kommunal xo'jaligi ijtimoiy-iqtisodiy soha bo'lganligi sababli doimiy ravishda aholiga bog'liq muammolarga duch keladi va u o'z navbatida davlat tomonidan tartibga solinadigan hamda moliyalashtiriladigan tizimli soha hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirish masalasi bugungi kundagi dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruviy muammolar qatoriga kiradi. Bu soha bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar innovatsion yondashuvlar, raqamli transformatsiya, energiya tejamkor texnologiyalar,



“aqlli shahar” konsepsiyalari hamda aholi farovonligini oshirishdagi xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur adabiyotlar sharhida yetakchi olimlarning ushbu yo‘nalishda olib borgan tadqiqotlari tahlil qilinadi.

Avvalo, A.A. Abduqodirov uy-joy kommunal sohasini modernizatsiyalash jarayonlarida institutsional islohotlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruriyatiga urg‘u bergan. Uning tahliliga ko‘ra, mavjud boshqaruv tizimi ko‘plab byurokratik to‘siqlar va resurslar samaradorligining pastligi bilan tavsiflanadi. Shu bois, u kommunal xizmatlar ko‘rsatishda shaffoflikni oshirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish orqali xizmatlar sifati va iste‘molchi roziligini oshirishni tavsiya etadi.

Rossiyalik olim V.M. Voronin mintaqaviy kommunal tizimlarni transformatsiya qilishda energiya samaradorligi va muqobil manbalardan foydalanishni asosiy yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi. Uning qarashicha, mintaqalarda “yashil energiya” yechimlarini integratsiyalash orqali nafaqat ekologik barqarorlik, balki uzoq muddatli iqtisodiy nafillik ham ta‘minlanadi.

Yevropa Ittifoqi doirasidagi “Covenant of Mayors” tashabbusi asosida olib borilgan tadqiqotlar, xususan, Anna Dimitrova va Michele Bellini tomonidan tayyorlangan hisobotlar, mahalliy hukumatlarning energiya va iqlim bo‘yicha harakat rejalarini innovatsion vositalar bilan boyitish tajribasini tahlil qilgan. Ular mintaqaviy darajada “raqamli tvinning” (digital twinning) texnologiyalarini tatbiq etish orqali kommunal xizmatlar monitoringini real vaqt rejimida olib borishning imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Ye.M. Chernyayevaning nazariy tadqiqotlarida ushbu atamaga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Uy-joy kommunal xo‘jaligi – davlat boshqaruvi va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari tomonidan uy-joy kommunal korxonalarining sovuq va issiq suv ta‘minoti, oqova suvlarni olib chiqish va tozalash, elektr ta‘minoti, tabiiy gaz ta‘minoti va isitish, maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish, turar joy binolari va ularning atrofini saqlab turish va ta‘mirlash, ko‘chalar, yo‘llar va maydonlarni tozalash, yo‘llar, trotuarlar, ko‘priklarni qurish va ta‘mirlash, ko‘chalarni yoritish, shu bilan birga hududlarni ko‘kalamzorlashtirish yo‘nalishidagi fuqarolar uchun turar joy binolarida qulay yashash sharoitini ta‘minlovchi ishonchli va barqaror faoliyatni amalga oshiruvchi xo‘jalik faoliyati sohasidir”.

Ayrim tadqiqot ishlarida uy-joy kommunal xizmatlar sohasi bo‘linmaslik va tanlanmaslik, hamkorlikda iste‘mol qilish, texnik va iqtisodiy jihatdan iste‘moldan chiqarib bo‘lmaslik, tig‘izlik hamda uzoq muddat davomida generatsiyalanish samarasiga egalik xususiyatlari bilan yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega aralash ijtimoiy ne‘mat sifatida talqin etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma‘lumotlar asosan mintaqaviy uy-joy kommunal xo‘jaligi korxonalari faoliyatiga oid statistik hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, so‘rovnoma natijalari va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida to‘plandi. Olingan ma‘lumotlar taqqoslash, tahliliy-statistik usullar hamda grafik vizualizatsiya orqali chuqur o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning uy-joy kommunal majmuasi nafaqat aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar darajasi va sifatini oshirish, balki ushbu xizmatlarning ekologik xavfsizligi, energiya tejamkorligi va texnologik zamonaviylashuvini ta‘minlash vazifalari oldida turibdi. Kommunalar korxonalarining barqaror va samarali faoliyat yuritishi, infratuzilmaning yangilanishi, resurslar bilan oqilona boshqaruv asosida ta‘minlanishi, shahar va qishloq hududlarida yashash sharoitlarining tenglashtirilishi bevosita investitsiyalarning hajmi va ularning maqsadli yo‘natirilishiga bog‘liq. Aholi sonining o‘sishi, eskirgan infratuzilma va xizmatlar sifati bo‘yicha mavjud noroziliklarni inobatga olgan holda, bu sohada investitsiyalar hajmi har qachongidan ko‘ra ko‘proq bo‘lishi zarur.

Shu munosabat bilan, innovatsion moliyalashtirish vositalaridan biri sifatida kraudfanding mexanizmini joriy etish dolzarb bo‘lib bormoqda. Kraudsorsing jarayonining yakuniy bosqichida loyihani moliyaviy jihatdan amalga oshirish uchun aynan kraudfanding bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda fuqarolar, investorlar va tashabbuskorlar internetdagi ixtisoslashgan platformalar orqali



loyihalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ular ularga ma'qul bo'lgan tashabbuslarni moliyalashtirish, axborot tarqatish va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali ishtirok etishlari mumkin.

Bundan tashqari, har bir foydalanuvchi o'zining g'oyasi va tashabbusini ishlab chiqish, uni ommaga taqdim etish va kraudfanding platformasi orqali moliyaviy mablag' yig'ish huquqiga ega. Bu jarayon bir vaqtning o'zida tashabbuskorlikni rag'batlantiradi, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish imkonini yaratadi va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda jamiyatni bevosita jalb etadi. Shunday qilib, kraudfanding moliyaviy resurslarni jalb qilish bilan birga, ijtimoiy faollik va aholi ishtirokini oshiruvchi vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirishda davlat va jamiyat o'rtasidagi yangi hamkorlik modelini shakllantirish imkonini beradi.

Davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan, kraudsorsing – bu loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi yoki unga qiziqqan ko'p sonli shaxslar (faol fuqarolar, ko'ngillilar) o'rtasida mehnatni taqsimlash orqali foydalaniladigan usul hisoblanadi. Bunday taqsimotning asosiy maqsadi – qarorlar samaradorligini oshirish, ayniqsa murakkab vazifalar va loyihalarni birgalikda amalga oshirishdan iborat. Bundan kelib chiqadiki, kraudsorsing – bu manfaatlar va bilim darajasi bo'yicha fuqarolar, notijorat hamda tijorat tashkilotlarining ochiq ishtirokiga asoslangan faoliyat turi bo'lib, u ijrochilar hamda tashabbuskorlar uchun o'zaro manfaatli natijalar beradi.

Uy-joy kommunal xo'jaligida kraudsorsingning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Ishga qiziquvchi mutaxassislarni jalb qilish;

Tadbirlarni amalga oshirish va xodimlar bilan muloqot qilish orqali insonni rag'batlantirish, bu esa uni jamoa uchun eng muhim a'zoga aylantiradi;

Katta guruhlar ishtirokini ta'minlagan holda resurslarni isrof qilmasdan muammoni hal qilishga keng imkoniyat yaratadi;

Ba'zi hollarda, kompaniya ichidagi mutaxassislar vazifani bajarish uchun yetarli malakaga ega bo'lmaganida, avvaldan muammoni yaxshi tushunadigan tashqi mutaxassislarni jalb qilish orqali butun jamoaning ishini yengillashtirish mumkin bo'ladi;

Jalb etilgan mutaxassislar sonining ko'payishi bilan muammoni hal qilishning yangi variantlari paydo bo'ladi, bu esa jamoaga vaziyatga moslashish va eng maqbul yechimni tanlash imkonini beradi.

Kraudsorsing, shubhasiz, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida innovatsion menejmentni rivojlantirish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning yangi vositasi sifatida e'tiborga loyiq. U innovatsion xizmat loyihalarini tanlash va joriy etishda muhim vositaga aylanish salohiyatiga ega. Kraudsorsing uy-joy kommunal xo'jaligini boshqarishning samarali usuli bo'lib, u innovatsion yondashuvga ega tashkilotlar tomonidan foydalanilishi, shuningdek, moliyalashtirish manbalarini izlash uchun qo'llanilishi mumkin.

Shunday qilib, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda kuchli moliyaviy manbaga asoslangan kraudtexnologiyalar yordamida uy-joy kommunal sektorida innovatsion faoliyatni samarali boshqarish va rivojlantirish imkoniyatlari shakllantiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, uy-joy kommunal xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilgan muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning barqaror rivojlanishi aholining hayot sifati, urbanizatsiya jarayonlarining samaradorligi va ekologik barqarorlik bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda xizmatlar sifati va infratuzilmaning texnik holati talab darajasiga to'liq javob bermasligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, boshqaruv tizimining eskirganligi va innovatsion yondashuvlarning yetarli darajada joriy etilmaganligi kabi muammolar sohani chuqur isloh qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslangan holda, sohada raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, "aqli boshqaruv" mexanizmlarini tatbiq qilish, davlat-xususiy sheriklik doirasida infratuzilmani modernizatsiyalash va kraudsorsing, kraudfanding kabi jamoaviy moliyalashtirish vositalaridan foydalanish istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi. Shu bilan birga, mahalliy hokimiyat organlarining tashabbuskorligini oshirish, kommunal xizmatlar bo'yicha yagona axborot tizimini yaratish, fuqarolarning soha rivojiga jalb etilishini rag'batlantirish va mutaxassislar salohiyatini oshirish ham zarur chora-tadbirlar sirasiga kiradi. Mazkur takliflarning amalga oshirilishi uy-joy kommunal xo'jaligini



zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. Muxammadiyeva Yu.Yu. ECONOMIC ANALYSIS OF THE REGION'S POWER TO ATTRACT FOREIGN INVESTMENTS. JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN. 239-243.
3. Muxammadiyeva Yu.Yu "Qashqadaryo viloyati salohiyatini iqtisodiy tahlili." journal of universal science research 1.11 (2023): 371-374.
4. Dimitrova A., Bellini M. Urban Digital Twin Technologies and Climate Adaptation Plans. – European Commission Report, 2021.
5. Jacobs J. The Death and Life of Great American Cities. – New York: Random House, 1961.
6. Rasulov Sh.S. Davlat-xususiy sheriklik asosida uy-joy xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Fan, 2022. – 178 b.
7. UN-Habitat. The Urban Innovation Index – Tools for Local Governments. – Nairobi: UN-Habitat, 2020.
8. Халиуллин А.Р. Механизмы устойчивого управления коммунальной сферой в регионах. – Казань: Казанский университет, 2018. – 212 с.
9. Florida R. The Rise of the Creative Class. – New York: Basic Books, 2002.
10. OECD. Smart Cities and Inclusive Growth: Building on the outcomes of the OECD Roundtable. – Paris: OECD Publishing, 2020.
11. Сапрыкин А.В. Цифровизация коммунальных услуг: проблемы и решения. – Санкт-Петербург: СПбГЭУ, 2021. – 156 с.
12. Muxammadiyeva Yu.Yu. Приоритеты и перспективы эффективного использования потенциала региона в условиях инновационного развития. Journal of Economy and entrepreneurship ЭКОНОМИКА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО.
13. Muxammadiyeva Yu. Yu. Iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'ziga xos xususiyatlari. JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
